




SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)


Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra **4 008,8 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **61,1** ming kishiga yoki **1,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 476,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **2 531,9** ming kishi (**63,2 %**)ni tashkil etdi.




Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km. ga kishi)




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-sentabr, ming kishi)

| | 2021 -y |
|---|---------|
| Tug'ilganlar | 82,0 |
| Vafot etganlar | 14,5 |
| Aholining tabiiy o'sishi | 67,5 |
| Kelganlar | 7,7 |
| Ketganlar | 14,1 |
| Migratsiya sal'dosi | -6,4 |
| Tuzilgan nikohlar, ming birlik | 24,3 |
| Nikohdan ajralishlar, ming birlik | 3,0 |
| <i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i> | |
| tug'ilish | 27,5 |
| o'lim | 4,9 |
| aholining tabiiy o'sishi | 22,6 |
| tuzilgan nikohlar | 8,2 |
| nikohdan ajralishlar | 1,0 |


2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,0 % ni tashkil etdi. Urgut 13,2 % ni, Pastdarg'om 9,1 % ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 % ni tashkil etgan.




Tug'ilganlar soni



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 81 968 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 27,5 promilleni tashkil etib, (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida 25,4 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti 2,1 promillega ko'paygan.



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-sentabr)



Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*







Vafot etganlar soni

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 14 451 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 63,4 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,7 % i – o'simtalardan, 4,8 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 7,8 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,0 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Tuzilgan nikohlar soni (ming birlik)






Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Kattaqo'rg'on sh. (**9,6**), Payariq (**9,3**), Paxtachi (**8,8**), Jomboy (**8,8**) va tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Nurobod (**6,5**), Urgut (**7,4**), Samarqand shahar (**7,7**) va Toyloq (**7,9**) tumanlarida kuzatildi.





Nikoh. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 24 305 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,2 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (2021 – yil, yanvar-sentabr)






Nikohdan ajrashganlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)



Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Samarqand shahar (1,7), Kattaqo'rg'on shahar (1,4), Samarqand (1,4), Jomboy (1,2) tumanlarida kuzatildi.


Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Nurobod (0,5), Urgut (0,5), Qo'shrabot (0,7) va Qo'shrabot Oqdaryo (0,8) tumanlarida kuzatildi.



Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 3 032 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti


(2021 –yil, yanvar-sentabr)



Migratsiya. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 697 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 14 093 kishini tashkil etdi. Migratsiya sal'dosi minus 6 396 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 9 212 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*kishi*)

| | 2020- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr |
|---------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 3 580 | 7 697 |
| Ko'chib ketganlar | 12 792 | 14 093 |
| Migratsiya sa'ldosi | -9 212 | -6 396 |



Hududlar kesimida aholi migratsiyasi taqsimlanishi (*kishi*)

(2021 –yil, yanvar-sentabr)

| | <i>Ko'chib kelganlar</i> | <i>Ko'chib ketganlar</i> | <i>Migratsiya sa'ldosi</i> |
|---------------------------|--------------------------|--------------------------|----------------------------|
| Samarqand viloyati | 7 697 | 14 093 | -6 396 |
| Samarqand sh. | 4190 | 2152 | 2 038 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 440 | 604 | -164 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqdaryo | 160 | 592 | -432 |
| Bulung'ur | 309 | 866 | -557 |
| Jomboy | 299 | 419 | -120 |
| Ishtixon | 420 | 1067 | -647 |
| Kattaqo'rg'on | 337 | 1070 | -733 |
| Qo'shrabot | 168 | 999 | -831 |
| Narpay | 169 | 674 | -505 |
| Payariq | 156 | 1246 | -1 090 |
| Pastdarg'om | 149 | 830 | -681 |
| Paxtachi | 10 | 950 | -940 |
| Samarqand | 394 | 724 | -330 |
| Nurobod | 192 | 488 | -296 |
| Urgut | 21 | 1112 | -1 091 |
| Toyloq | 283 | 300 | -17 |

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Urgut (minus 1 091 kishi), Payariq (minus 1 090 kishi), Paxtachi (minus 940 kishi), Qo'shrabot (minus 831 kishi), Kattaqo'rg'on (minus 733 kishi), Pastdarg'om (minus 681 kishi) hamda Ishtixon (minus 647 kishi) tumanlarida kuzatildi.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(66)235-72-35